



www.isft.uz

“ISFT” ILMUY-USLUBIY JURNAL  
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

# JURNALISTIKA

## O'ZBEKISTON MILLIY AXBOROT MAKONIDA SAYTLARNING O'RNI

Zoxir TOSHXUJAYEV<sup>1</sup>

<sup>1</sup>O'zJOKU “Raqamli media va internet jurnalistika” kafedrasi o'qituvchisi

### KALIT SO'ZLAR

Onlayn jurnalistika, sayt, jurnalist, axborot, Internet.

### КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Онлайн-журналистика, сайт, журналист, информация, Интернет.

### KEY WORDS

Online journalism, website, journalist, information, Internet.

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada onlayn jurnalistikaning axborot tarqatishdagi asosiy vositasi – saytlar va ularning milliy axborot makonidagi o'rni va ahamiyati o'rganilgan.

### АННОТАЦИЯ

В данной научной статье рассматривается основной инструмент интернет-журналистики в распространении информации – сайты, а также их роль и значение в национальном информационном пространстве.

### ABSTRACT

This scientific article examines the main tool of online journalism in disseminating information – websites, as well as their role and significance in the national information space.

**Kirish.** Sayt tushunchasi bugun kundalik hayotimizda eng ko'p ishlatalayotgan vositalardan biriga aylanib bo'lgan. Hammamiz ham har qanday kerakli ma'lumotni olish, qidirish, topish uchun darrov saytlarga va ularning qidiruv funksiyalariga murojaat qilamiz.

Bugun jamiyatning asosiy qismi axborotga bo'lgan ehtiyojni asosan onlayn media vositalari – sayt va ijtimoiy tarmoqlar yordamida qondirmoqda. Bu birinchi navbatda, internetning ommalashgani va hayotimizning ajralmas qismiga aylangani bilan bog'liq [1; 6].

Aniq misol sifatida quyidagi faktni keltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi internetdan

foydalanish holati bo'yicha shunday ma'lumotlarni taqdim etdi [5]:

Statistika agentligining uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, 2023-yilning yanvar-dekabr holatiga ko'ra, 10 yosh va undan katta yoshdagи aholining o'z uyida internetdan foydalanayotganlar ulushi 67 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2021-yilda 49,9 %ni, 2022-yilda 59,6 %ni tashkil etgan.

O'zbekistonda 2023-yilda o'n va undan katta yoshlilar orasidan mobil telefondan foydalanuvchi aholi ulushi 99,1 %ga ko'tarildi. Bu ko'rsatkich 2021-yilda 95,7 %, 2022-yilda 97,8 % bo'lган.

2023-yilda 100 ta uy xo'jaligiga to'g'ri keladigan mobil telefonlar soni o'rtacha 349 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2010-yilda



www.isft.uz

**“ISFT” ILMY-USLUBIY JURNAL  
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL**

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

145 ta, 2015-yilda 234 ta, 2020-yilda 287 ta bo‘lganini ko‘rish mumkin.

Yuqoridagi statistik ko‘rsatkichlar yildan yilga o‘sib boradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** “Internet sayt”, “veb-sayt”, “portal” kabi tushunchalar jurnalistlar uchun ijod maydoni, iste’molchi uchun axborot va ma’lumotlar manbayi hisoblanadi. Saytlarning internet tarmog‘ida joylashganligi ularning interaktivligini ta’minlaydi va bu xususiyat elektron axborot tarqatish vositasiga an’anaviy ommaviy axborot vositalariga qaraganda anchagina keng imkoniyat, erkinlik va ustunlik beradi.

Sayt [6] – onlayn jurnalistika vositasi sifatida ana shu ustunliklarni o‘zida mujassam etadi.

Bugungi kunda saytga bitta domen nomidan foydalanadigan, bir-biriga bog‘langan veb-sahifalar to‘plami, deb ta’rif berilyapti. Veb-saytlar shaxs, guruh, korxona yoki tashkilot tomonidan turli maqsadlarda yaratilishi mumkin. Barcha ommaviy veb-saytlar butun dunyodagi internet to‘rini tashkil qiladi va internet orqali ushbu tarmoqqa bog‘langan.

Yanada sodda qilib tushuntirsak, sayt – bu internetda joylashgan, ba’zi ma’lumotlarni (matn, ovoz, video, foto, hujjatlar, grafika, musiqa va shu kabi har qanday ma’lumotlarni) o‘z ichiga olgan manzil. Internet esa, ushbu manzillar to‘plamidir.

Birinchi sayt yaratuvchisi sifatida angliyalik olim ser Timoti Jon Berners-Li (Tim Berners-Li) e’tirof etiladi [7]. Tajribali mutaxassis Shveysariyaning Jeneva shahrida joylashgan Yevropa yadroviy tadqiqotlar markazidagi (CERN – fransuzchada Conseil Européen pour la Recherche Nucléaire)

hamkasblariga gipermatnli hujjatlarni giperhavolalar orqali bog‘lab uzatishni taklif qiladi [8]. Berners-Li gipermatnni ichki qidiruv tizimlari va hujjatlarga, shuningdek, internatning informatsion resurslariga kira olish imkoniyatini namoyish qilib beradi.

Shu tariqa, Tim Berners-Li ilk saytni 1991-yilning 6-avgustida yaratdi. Ushbu sayt <https://info.cern.ch/> manzilida joylangan bo‘lib, hamon faol hisoblanadi.

Ilk sayt faqat giperhavolali matndan iborat, unda hech qanday grafik elementlar yoki vizual vositalar ishlatalmagan. Unda giperhavola orqali asosiy hujjatga o‘tish ko‘zda tutilgan.

**Natijalar.** Internet taraqqiyoti bosqichida saytlar aholining axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirishning asosiy vositasiga aylandi. An’anaviy ommaviy axborot vositalari ham o‘z veb-saytlarini yaratish orqali nashrlarning elektron versiyalarini o‘quvchi e’tiboriga havola eta boshladi.

Televide niye va radio efirlari ham jadal tarzda internetga ko‘cha boshlaganini ko‘rishimiz mumkin. Bunga asosiy sabab – internet bergen qulaylik va imkoniyatlarning ko‘pligidir.

Bugungi saytlar, veb-portallar nafaqat axborot berish, balki xizmat ko‘rsatish vazifalarini ham bajarmoqda [9]. Zamonaviy sharoitda internet orqali savdo va xizmat turlaridan foydalanayotgan iste’molchilar safi tobora kengayib bormoqda.

Ta’kidlash joizki, onlayn mediada faoliyat yuritadigan jurnalistlarga an’anaviy ommaviy axborot vositalarida ishlaydigan ijodkorlarga qaraganda, biroz boshqacharoq talablar qo‘yiladi.



www.isft.uz

**“ISFT” ILMY-USLUBIY JURNAL  
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL**

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Virtual olamda ijod qiladigan jurnalistdan universallashuv, ya’ni bir paytning o’zida matn, audio va video bilan ishlay olish qobiliyatini talab qiladi. Bundan tashqari, matnni tahrir qila olish, audio, foto va video materiallarni montaj qilish, dizayn va bezash kabi texnik ko’nikmalarni o’zlashtirib borishni ham o’rtaga qo‘ymoqda [10].

Sayt o’z kontenti, texnik imkoniyatlari, dizayni bilan tashrif buyuruvchini uzoqroq muddat ushlab qolishi shart. Chunki onlayn yo‘nalishda ishlayotgan ijodkorlar o’z auditoriyasini aniq bilishi, uni ushlab qolishga va kengaytirishga doimiy e’tibor qaratishi lozim. Har qanday sayt istiqbolini uni muntazam kuzatuvchi auditoriyaning hajmi belgilaydi.

Shuning uchun ham sayt o’quvchilar talabiga mos, texnik jihatdan mukammal, dizayn nuqtayi nazaridan o’ziga jalb qiluvchi va mazmunan boy bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Saytlar quyidagi afzallikkarga ega:

**1. Jamoatchilik bilan doimiy aloqa.**

Internet auditoriya bilan doimiy aloqani ta’minlaydi. Shuning uchun ham yetakchi saytlar kecha-yu kunduz uzlusiz axborot tarqatishga harakat qiladi. Axborot izlagan kishi islatgan paytda internetdan foydalanib, o’zi istagan ma’lumotlarni olish imkoniga ega bo‘lishi onlayn jurnalistikaning boshqa turdagи manbalardan ustunligini ta’minlab kelmoqda. Agar sayt o’z kuzatuvchisining ishonchini qozona olsa, o’quvchi axborotni asosan o’zi o’rgangan manbadan qidiradi [3; 76].

**2. Global auditoriya.** Onlayn rejimda hech qanday geografik to’siqning o’zi yo‘q. Inson yer yuzining qayerida bo‘lishidan qat’i nazar, internet orqali o’zi istagan saytlarni

bemalol kuzatib borish imkoniga ega. Onlayn jurnalistikaning asosiy ustunliklaridan biri aynan vaqt va makon tanlamasligida.

**3. Interaktivlik.** An’anaviy axborot vositalari o’quvchi va kuzatuvchilarga aktiv ishtirokchi rolini taqdim qila olmaydi. Siz gazeta, jurnal yoki kitob o‘qish jarayonida tahririyat bilan bog‘lana olmaysiz. Radio va televide niyeda esa, agar efir eshituvchi va tomoshabinlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotni nazarni tutmasa, jonli muloqotning imkoni yo‘q.

Internetda interaktivlik yuqori bo‘lgani uchun sayt tahririyati va jamoatchilik doimiy ravishda o‘zaro aloqa o‘rnata oladi [4, 86]. Iste’molchilar o‘zlarini qabul qilayotgan informatsiya bo‘yicha o’z qarashlari, fikr-mulohazalari yoki munosabatlarini bildirishlari mumkin. Tahririyatlar ham interaktivlik orqali o’z auditoriyasini har tomonlama o‘rganish imkoniga ega.

**4. Rentabellik.** An’anaviy ommaviy

axborot vositalarida mahsulot tayyorlash maxsus texnik jarayonlar, ijodiy guruh va shunga yarasha xarajatlarni talab etadi. Ya’ni, mediamahsulot ishlab chiqarish bugungi kunda arzon emas. Internetdan foydalanish uchun haq borgan sari arzonlashib bormoqda, demak, internet orqali muloqot qilishning iqtisodiy samaradorligi oshyapti. Saytlarga kontent tayyorlash jarayoni tez, qulay, arzon. Ammo asosiy yutuq iqtisodiy emas, kommunikatsiya sohasida ro‘y beradi.

Har qanday ommaviy axborot vositasi birinchi navbatda auditoriya uchun ishlaydi. Internet saytlarida bu ayniqsa muhim. Saytning moliyaviy barqarorligi ham aksariyat holatda auditoriya hajmiga bog‘liq bo‘ladi. Bu ijodkorlardan jamiyat e’tiborini torta oladigan



kontentlar tayyor, buning uchun auditoriya ehtiyoji va talablarini yaxshi bilish, masalaga topqirlik bilan yondashish, kontentlar originalligini ta'minlash, qiziqarli va kutilmagan mavzularni olib chiqish kabi muhim xususiyatlarni talab qiladi.

Milliy media makondagi ilk saytlarning ommaviylik va auditoriya qamrovi darajasini hozirgisi bilan umuman solishtirib bo'lmaydi. Biroq sayt yuritayotgan tahririyatlar jamiyatni virtual olamga tortish imkoniyatlarini izlashdan to'xtagani yo'q. Texnika va texnologiyalar borasidagi aholi savodxonligining ko'tarilishi, oddiy telefonlardan smartfonlarga o'tgani, mobil internetning hayotimizga jadal kirib kelishi kabi omillar onlayn jurnalistikaning taraqqiyotiga mustahkam poydevor qo'ydi [11].

Bundan foydalangan onlayn jurnalistikada faoliyat yuritayotgan tahririyatlar dastlabki yillarda saytlarning mobil versiyalarini yaratish va auditorianing qo'lidagi smartfonlariga axborot yetkazish orqali ularni o'ziga jalg' etish usuliga urg'u bera boshladi.

Jamiyatga istalgan joyda mobil internetdan foydalangan holda saytning mobil ilovasi orqali olish imkoniyati taqdim etildi.

Saytning mobil ilovasi (versiyasi) – tahririyatning alohida veb-sayti bo'lib, u smartfon va planshet kabi mobil qurilmalar uchun mo'ljallangan [13]. Saytning mobil versiyasi tahririyat tomonidan telefon orqali undan foydalanishi osonlashtirilgan variantda taqdim etiladi. Asosiy sayt esa, personal kompyuterlar uchun mo'ljallangan.

**Muhokama va xulosa.** Bugungi kunda insonning axborot qidirib, gazeta-jurnal, radio va televiedeniye kabi an'anaviy ommaviy axborot vositalaridan foydalanishi tobora kamayib bormoqda. Internet va zamonaviy texnologiya yutuqlari, xususan, smartfonlarning hayotimizga chuqur kirib kelishi axborotni bevosita o'z telefonlarimizdan olish imkoniyatini yaratdi. Buning uchun smartfonlarga saytlarning mobil versiyalari yoki ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini yuklash, xabarlar kelganidan ogohoantiruvchi funksiyalarini faol holatga keltirib qo'yish kifoya. Xabarlar oqimi to'xtamaydi. Insondon ularni saralab, foydalanish talab etiladi xolos.

Shu ma'noda, tahririyatlar o'z auditoriyasini ushlab qolish, axborot bozorida mavqeyini mustahkamlash, kontentlarini iste'molchilarga uzluksiz yetkazib berish maqsadida saytning mobil versiyasini yaratib, ishga tushirgan tahririyatlar uni mobil qurilmalar ishlaydigan asosan Android va iOS kabi operatsion tizimlarga joylaydi [14]. Iste'molchi saytning mobil ilovasini qo'l ostidagi mobil qurilma operatsion tizimiga mos keladigan versiyasini yuklab olib, uni ishlatsishi mumkin.

Xullas, onlayn media ijodkorlari Android va iOS operatsion tizimlarining texnologik yutuqlaridan foydalangan holda saytlarini mobil qurilmalarga ko'chirish orqali o'z auditoriyalariga xizmat qilishda davom etmoqda [15].



www.isft.uz

**“ISFT” ILMUY-USLUBIY JURNAL  
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL**

ISSN: 3030-329X

2024/4-sot



www.jurnal.isft-ilm.uz

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Лукина М.М., Фомичева И.Д. СМИ в пространстве Интернета. Учебное пособие. Факультет журналистики МГУ им. М.В. Ломоносова, 2005.

2. Акопов А.И. Глобальное средство массовой информации // Мир медиа XXI. – 1999.

3. Muratova N. Jurnalistikada media va axborot savodxonligi. Qo‘llanma. Toshkent, 2019.

4. Nurutdinova M. Multimediyaviy janrlar tasnifi. – Toshkent, 2021.

5. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/52771-10-yosh-va-undan-katta-yoshdagি-aholining-o-z-uyida-internetdan-foydalanayotganlar-ulushi-oshgan>

6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Veb-sayt>

7. [https://en.wikipedia.org/wiki/Tim\\_Berners-Lee](https://en.wikipedia.org/wiki/Tim_Berners-Lee)
8. <https://home.cern/>
9. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Veb-portal>
10. [https://www.researchgate.net/publication/339306498\\_AVTOMATLASGAN\\_ZURNALISTIKA\\_SOA\\_TALIMI\\_VA\\_AMALIETINING\\_KELAZAGI](https://www.researchgate.net/publication/339306498_AVTOMATLASGAN_ZURNALISTIKA_SOA_TALIMI_VA_AMALIETINING_KELAZAGI)
11. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Smartfon>
12. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Mobilnyy\\_internet](https://ru.wikipedia.org/wiki/Mobilnyy_internet)
13. <https://roistat.com/rublog/mobilnaja-versija-sajta/>
14. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Android>
15. <https://uz.wikipedia.org/wiki/IOS>